

A.E. ODILXO'JAYEV  
A.M. KARABAYEV

QURILISH MATERIALLARIGA  
OID ATAMALAR  
IZOHLI LUG'ATI  
(O'ZBEK-RUS-INGLIZ TILLARIDA)



UDK 691(075.8)

KBK 84.5 O-37

**Qurilish materiallariga oid atamalar izohli lug'ati. Izohli lug'at**

A.E. Odilxo'jayev, A.M. Karabayev. Toshkent, «Adabiyot uchqunlari», T. 2018, 206 bet.

**Taqrizchilar:** A. X. Uroqov - t.f.n., dots. (TAYLQEI);

E.M. Maxamataliyev - t.f.n., professor (TTYMI).

Ushbu izohli lug'at 5340200 - Bino va inshootlar qurilishi (temir yo'l binolari) bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 5A340201 - Bino va inshootlar qurilishi (transport bino va inshootlar) magistratura mutaxassisligi talabalari, 05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha izlanuvchi - tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va professor-o'qituvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, "Qurilish materiallari va buyumlari" fanidan o'zbek, rus va ingliz tillaridagi maqola, adabiyotlardan to'liq foydalanishlarida qo'l keladi.

Izohli lug'at umumiy ma'lumotlar, asosiy xossalar, qorishmaning tashkil etuvchilari, turli materiallarning sinov usullari, bog'lovchilar, buyumlarning turlari, qurilish materiallari va qurilish industriyasi sohasida ko'p qo'llanadigan va keng foydalaniladigan nazariy, ilmiy-texnik atamalarni o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan izohli lug'at sifatida tavsiya etilgan (Grif 274-176).

ISBN 978-9943-5286-7-5

© Toshkent, «Adabiyot uchqunlari», 2018  
© A.E. Odilxo'jayev, A.M. Karabayev, 2018

**KIRISH**

Izohli lug'at "Qurilish materiallari va buyumlari", "Temir yo'l qurilishida samarali materiallar", "Qurilishda innovatsion texnologiyalar", "Qurilish jarayonlari texnologiyasi", "Gruntlar mexanikasi" fanlari bo'yicha 54 mingdan ortiq so'z va 589 ta atamadan tashkil topgan. Ushbu izohli lug'at namunaviy o'quv dasturiga mos, ilmiy ahamiyatga ega va tugallangan deb aytish mumkin.

Taqdim etilayotgan o'zbek-rus-ingliz tillaridagi izohli lug'at qurilish atamashunosligini to'laroq yoritishga urinish hisoblanadi. Xususan, so'nggi yillarda rivojlanib borayotgan sohalar atamalari taqdim etilib, masalan, alukobond, akvanel, quruq qurilish aralashmalari, quyma pollar va boshqalar, shuningdek qurilish materiallarining asosiy xossalari taqdim keltirilgan.

Kitobxonga qulaylik yaratish uchun lug'atda yetaklovchi (bosh) terminlar har bir boblarda alohida alifbo tartibida joylashtirilgan. Lug'at O'zbekiston, Rossiya va Yevropa standartlariga kirgan atamalarni o'z ichiga oladi hamda hozirgi fan yutuqlari va texnik taraqqiyotni o'zida aks ettiradi.

Atamalarning o'zbek tilidagi ekvivalentlari tegishli standartlar, qurilish me'yorlari va qoidalari to'plami va monografiyalardan tanlandi. O'zbek tilida to'la o'xshashligi mavjud bo'lmagan atamalarga izohli tushuntirishlar keltirildi.